

**DAVLAT BYUDJETI MABLAK'LARIDAN OQILONA FOYDALANISHDA MOLIYAVIY  
NAZORATNI KUCHAYTIRISH YO'LLARI****O'rinboyeva Yulduz Pirnazarovna****Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti o'qituvchisi, Dots.****M.I.Umirzoqova****Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti o'qituvchisi****Usmonov Behruz Sharofiddin o'g'li****Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti talabasi**

Tel:+998995421703

E-Mail: Behruz0727@gmail.com

**Annotation**

This article deals with the state budget, its sectors, ways to strengthen financial control over the rational use of public funds, extra-budgetary funds of budget organizations, methods of financial control over the use of funds, recent achievements in the field, IT secret, as well as problem analysis.

**Key words**

budget organization, extra-budgetary fund, income, expenses, rent, sponsorship, type of production, savings, extra-budgetary funds.

**Аннотация**

Ushbu maqola davlat budjeti, uning tarmoqlari, davlat mablag'lardan oqilona foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari, jamg'arma mablag'lardan foydalanishda moliyaviy nazoratning usullari, sohadagi oxirgi yillardagi yutuqlar, IT ta'siri, hamda muammolar tahlili keltirib o'tilgan.

**Калип сўзлар**

byudjet tashkiloti, byudjetdan tashqari jamg'arma, daromad, xarajat, ijaradan tushgan mablag'lar, homiylik mablag'lari, faoliyat turiga xos ishlab chiqarish, iqtisod qilingan mablag'lar, byudjetdan tashqari mablag'lar.

Har qanday rivojlanayotgan mamlakatda olib boriladigan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida davlat budjetidan to'g'ri foydalanish va foydalanish holatini nazorat qilishga ehtiyoj sezadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat byudjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet mablag'lardan samarali foydalanish nazoratini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Byudjet mablag'lardan oqilona foydalanishga esa samarali nazorat tizimini shakllantirmasdan turib erishib bo'lmaydi. Ma'lumki, byudjet jarayonining asosiy bosqichlaridan biri davlatning moliyaviy nazorati hisoblanadi. Moliyaviy nazorat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan nazorat faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Iqtisodiyoti rivojlangan hech bir mamlakat yo'qki, moliya sohasida davlatning nazorat organlari mayjud bo'lmasin. Moliyaviy nazorat instituti davlatning nazorat organlarining umumiyligi tuzilishini o'zida mujassamlashtiradi va moliyaviy mexanizmning asosiy elementi sifatida namoyon bo'ladi. Moliya, byudjet, soliq intizomiga etarli darajada rioya qilinmayotganligi va byudjet mablag'larini maqsadsiz ishlatalishida ko'p sonli holatlarning mavjudligi barcha mamlakatlarda davlatning moliyaviy nazoratini kuchaytirishning zarurligini ko'satmoqda. Albatta, byudjet mablag'larini sarflashda byudjetdan qilinadigan xarajatlarning cheklanganligi, byudjet taqchilligining mavjudligi, byudjetda ijtimoiy sohalardan tashqari boshqa xarajatlarga-aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash, iqtisodiyot tarmoqlarining mutanosib rivojlanishini ta'minlash, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga ham zaruriyat mavjudligini hisobga olishimiz kerak bo'ladi. Byudjet mablag'larini sarflashda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni kelib chiqish sababi moliya hamda nazorat taftish idoralari xodimlarining ular oldiga qo'yilgan asosiy vazifa-byudjet intizomiga rioya etishni ta'minlashga mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi ijrosi chuqur tahlil qilinishi, talab darajasida nazorat o'rnatilishi, byudjet tashkilotlarida mablag'larni maqsadli sarflash to'g'risida keng doiradagi tushuntirish ishlari etarli darajada olib borilishi lozim. Byudjet tashkilotlarining xarajatlarni katta qismini kommunal xizmat haqlari egallaydi

aniq, to'g'ri hisoblar bilan tuzish muhimdir. Byudjet tashkilotlarida kommunal xizmatlar (issiqlik energiyasi, issiq va sovuq suv, kanalizatsiya), gaz va elektr energiya sotib olish xarajatlari limitlariga qat'iy rioya etish talab etiladi.

Budget tashkilotlarini xarajatlaridan oqilona foydalanish borasidamamlakatimizda nazariy va me'yoriy asoslar takomillashib bormoqda. Bu borada Vazirlar Mahkamasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, budget mablag'laridan samarali va aniq foydalanish" bo'yicha qarori qabul qilindi. Qarorda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2000 yil 1 yanvardan boshlab budget tashkilotlari xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashning yangitartibini joriy etish to'g'risidagi takliflar inobatga olishi kerakligi va u bo'yicha: budget mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budget vasmeta-shtat intizomini mustahkamlash uchun budget tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish;

budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizminisoddalashtirish va budget mablag'laridan foydalanishda yuqori natijalarga erishishmaqsadida mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

budget tashkilotlari xodimlari mehnatini rag'batlantirish, ular faoliyatamaradorligini oshirish va kadrlarning ornashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish kabi chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda budget mablag'laridan oqilona foydalanish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, mamlakatimizda keyingi yillar davomida davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish borasida bir qator samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat soliq xizmati organlari tizimida ham moliyaviy resurslarni boshqarish va budget mablag'laridan oqilona foydalanishni nazorat qilishning tizimli choralar yo'lga qo'yilgan. Joriy yilning o'tgan 9 oyi davomida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarida hududiy soliq organlarida 5 694 ta holatda 6 356,2 mln so'mlik kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. Jumladan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha xatoliklar aniqlanib, xodimlarga to'lanmay qolgan 589,1 mln so'm mablag' to'lab berildi. Ortiqcha sarflangan 956,3 mln so'm mablag'lar qaytarilishi ta'minlandi. Bundan tashqari, 13 ta holatda 15,7 mln so'mlik yoqilg'i ortiqcha sarflanganligi, 2 ta holatda xizmat avtomashinasiga yetkazilgan zarar qoplanmaganligi aniqlandi.

Shuningdek, soliq xizmati organlari ma'muriy binolarini ijara berishda to'lovlar undirilmaganligi, maxsus jamg'arma mablag'lari Davlat soliq qo'mitasiga o'tkazib berilmaganligi hamda asosiy vosita va TMZlarni sanoqdan o'tkazishda kamchiliklarni aniqlanib, 49,7 mln so'mlik zararlar bartaraf etilishi ta'minlandi. Tizimda kamchiliklarning to'liq bartaraf etilishi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan nazoratga olinib, kelgusida bu kabi holatlarning takrorlanishini oldini olish maqsadida mas'ul xodimlarga normativ-huquqiy hujjatlar talablari yuzasidan tushuntirish va ko'rsatmalar berildi.

Senatning o'ninchisi yalpi majlisida "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi, "Byudjet jarayoni takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi hamda "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunlar muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonun bilan kelgusi yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va konsolidatsiyalashgan Davlat byudjeti prognozlari hamda 2022 – 2023-yillar uchun byudjet mo'ljallari belgilanmoqda. Makroiqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalish va ko'rsatkichlari kelgusi yilda ham koronavirus pandemiyasi davom etishi taxminlaridan kelib chiqqan holda shakllanirilgan. Bunda asosiy e'tibor makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish, fiskal rag'batlantirish choralarini mo'tadillashtirib borish, iqtisodiy o'sish sur'atlarining 5 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Inflyatsiya darajasining pasayish tendensiyasi davom etishi va kelgusi yilda uning 10 foiz atrofida bo'lishi proqnoz qilinmoqda. Ushbu rivojlanish

ko‘rsatkichlariga har bir sohada boshlangan tarkibiy islohotlarni sifatli davom ettirish orqali erishish nazarda tutilgan. Qayd etilganlardan kelib chiqib, 2021-yilda Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 178,5 trln. so‘mga yoki yalpi ichki mahsulotning 25,9 foizi darajasida prognoz qilingan. Davlat byudjeti daromadlari 147,2 trln. so‘m yoki yalpi ichki mahsulotning 21,3 foiz miqdorida belgilanmoqda. Davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlari 26,2 trln. so‘m, xarajatlari esa 40,8 trln. so‘m miqdorida rejalashtirilgan. Davlat maqsadli jamg‘armalariga respublika byudjetidan 15,9 trln. so‘m mablag‘ ajratish ham belgilangan. Jumladan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari 23,5 trln. so‘m, xarajatlari 36,5 trln. so‘mni tashkil etgani holda byudjetdan 14,7 trln. so‘m ajratilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, Davlat byudjetidan ijtimoiy sohalarga, xususan, ta’lim sohasi xarajatlariga 34,6 trln. so‘m, Sog‘liqni saqlash sohasiga 19,6 trln. so‘m, Madaniyat va sport sohasi xarajatlariga 2,6 trln. so‘m va fanni yana-da rivojlantirish tadbirdi uchun 1,2 trln. so‘m yo‘naltirish rejalashtirilgan. Davlat dasturlari orqali esa uzlusiz ta’lim tizimini rivojlantirish dasturlari uchun (2 197 mlrd. so‘m), fanni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun (168 mlrd. so‘m) aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish uchun (3 952 mlrd. so‘m) mablag‘ ajratish rejalashtirilgan. Shuningdek, jamoatchilik va parlament nazoratini kuchaytirish choralar doirasida Qonunda ilk bor birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilari byudjetida davlat dasturlari uchun ajratilayotgan mablag‘lar alohida ko‘rsatilishi nazarda tutiganini qayd etish lozim. Bundan tashqari, majlisda ta’kidlanganidek, “Byudjet jarayoni takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun bilan byudjet tizimi va byudjet jarayonini takomillashtirish choralar belgilanmoqda. Ushbu choralarining Byudjet va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslar hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi va “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunlarga tegishli o‘zgartish kiritish orqali amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Bunda Byudjet kodeksiga kiritilgan o‘zgartish bilan byudjet jarayonining shaffofligini ta‘minlash tartibi buzilgan hollarda vazirlik va idoralar rahbar xodimlariga jarima qo‘llanilishi belgilanmoqda. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga Davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi haqidagi hisobotni taqdim etmagan, byudjet jarayonining shaffofligini ta‘minlash tartibini buzgan vazirlik va idoralar rahbarlariga jarima qo‘llash bo‘yicha o‘zgartishlar kiritilmoqda. Shuningdek, majlisda “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun ham ko‘rib chiqildi. 2021-yilda soliq siyosatini takomillashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish orqali soliqlar yig‘iluvchanligiga erishish Qonunning asosiy maqsadidir.<sup>4</sup>

Yuqorida ma’lumot va tahlillardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Davlat byudjeti mablag‘laridan oqilona foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo‘llarining eng zamonaviy usuli, moliyaviy operatsiyalarda inson faktorini kamaytirish, IT texnologiyalaridan foydalangan holda, jarayonlarni online tizimga o’tkazish va nazoratni ham mana shu uslubda olib borish kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://hozir.org/islom-iqtisodiyoti-va-moliyasi-ziyorat-turizmi.html?page=14>
2. <https://www.coursehero.com/file/pol7jf/Budget-tashkilotlarini-xarajatlaridan-oqilona-foydalanish-borasida/>
3. <https://soliq.uz/press-services/news/show/budget-mablaglari-maqsadli-sarfining-nazorati-taminlanmoqda>
4. <https://xs.uz/uz/post/2021-jil-davlat-byudzheti-maqullandidi>